

**Buxoro davlat pedagogika instituti
“Xorijiy tillar” kafedrasi PhD,
dotsenti Ikramova Aziza Aminovna
taqrizi ostida**

**Qodirova Nilufarxon
Buxoro davlat pedagogika instituti
magistranti.
Telefon raqami: +998906372207
Orcid: 0009-0005-3299-9730
E-mail: nilukadirova.07@mail.ru**

ZAMONAVIY TA’LIM SHAROITIDA KASBIY KOMPETENSIYA

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda rivojlangan davatlarning ta’lim tizimida qo’llanilayotgan ta’lim texnologiyalari va ulardan ta’lim jarayonida samarali foydalanish, shu jumladan zamonaviy ta’lim sharoitida kasbiy kompetensiya hamda kasbiy kompetentlik tushunchalari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Gibrild ta’lim, kompetensiya, raqamli texnologiya, ta’lim klasteri, strategiya, ta’lim axboroti, ta’lim texnologiyalari, axborot texnologiyalari, kompetentlik.

PROFESSIONAL COMPETENCE IN MODERN EDUCATIONAL CONDITIONS

Annotation: This article discusses the educational technologies used in the educational system of developed countries today and their effective use in the educational process, including the concepts of professional competence and professional competence in modern educational conditions.

Key words: Hybrid education, competence, digital technology, educational cluster, strategy, educational information, educational technologies, information technologies, competence.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация: В данной статье рассматриваются образовательные технологии, используемые сегодня в образовательной системе развитых стран, и их эффективное использование в образовательном процессе, в том числе понятия профессиональной компетентности и профессиональной компетентности в современных условиях образования.

Ключевые слова: Гибридное образование, компетентность, цифровые технологии, образовательный кластер, стратегия, образовательная информация, образовательные технологии, информационные технологии, компетентность.

Kompetensiya – bu mutaxassislarning turli sohalarda kasbiy vazifalarni hal qilishga bilim va malakalarini kundalik hayotda qo’llashga tayyorligi va qodirligidir.

Kompetentlik shaxsning integrativ sifati bo‘lib, ta’lim va amaliyot jarayonida shakllanadi, u ishlab chiqarish faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladigan, kasbiy va insoniy sifatlar senergetikasidan iborat. Kompetentlik – insonning ijtimoiy-kasbiy faoliyatidagi intellektual va shaxsiy shartli tajribasini, barcha kompetensiyalarga egalik darajasini, kasbiy faoliyatda kompetensiyalarni qo’llashga tayyorlik bosqichini bildiradi.

Aralash ta’lim sharoitida talabalarning axborot-kommunikatsion pedagogik kompetentligini soha vaziyatlarga moslashish va tegishli qarorlar qabul qilish, operatsion tizim muhitida muayyan dasturiy vositalar bilan ishlash, mantiqan to‘g‘ri va samarali dasturlarni qurish uchun dasturlash tillaridan foydalana olish, ma’lumotlar bazasi, kompyuter tarmoqlari va boshqa vositalarni qo‘llash orqali kasbiy vazifalarni bajarishini ta’minlovchi kompetensiyalar majmuasi sifatida qaraymiz. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish bevosita ta’lim muassasalarida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish orqali amalga oshiriladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta’lim sohasiga keng jalg qilinishi auditoriya mashg‘ulotlariga ajratilgan soatlarning qisqarib borishi sharoitlarida beriladigan ma’lumotlarni talabalarga samarali taqdim etish, talabalarni mustaqil va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, jamoa bo‘lib ishlash, qaror qabul qilish, o‘z fikr va qarashlarini omma oldida himoya qilish kompetensiyalarini mukammal o‘zlashtirishlariga imkon beradi. Shunday ekan, ta’lim jarayonida o‘qitishning ilg‘or texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalarda shakllantiriladigan kompetensiyalarni baholashning o‘rnii va ahamiyati oshib boraveradi.

Kompetensiyaga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, “kompetentsiya” so‘zi ot bo‘lib, “kompetentlik” uning hosilasi, ya’ni sifatidir. “Kompetentsiya” shaxsnинг vakolatlari doirasini, “kompetentlik” esa uning xusu-siyatini xarakterlaydi.

Hozirgi vaqtida «kompetentsiya» va «kompetentlik» tushunchalarining mazmunini aniqlash, shuningdek, faoliyatning turli sohalarida ularni shakllantirish hamda rivojlantirish muammolari bo‘yicha juda ko‘p tadqiqot materiallarining to‘planganligi, esa ularni tasniflash muammosini yuzaga keltirdi.

Komponentlikni keng ma’noda, ya’ni faollikning ijtimoiy va individual shakllarini o‘zlashtirganlik darajasi sifatida tushunish zarur. Ushbu sifat individning o‘z qobiliyatları va mavqeい doirasida jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi. Garchand «kompetentlik»ning ushu ta’rifi yuqorida bayon etilganlarga qaraganda ancha kengroq ma’noni anglatsa-da, unda ularning mohiyati, ma’noviy o‘zagi - insonning biror soha bo‘yicha tajribasi, bilimlari va ko‘nikmalari aniq ifodalanadi.

Kompetentlik deganda shaxs sifatlarining integrativ xarakteristikasini, ta’lim muassasasining muayyan sohalar (kompetensiyalar doirasi)da faoliyatni amalga oshirish uchun bitiruvchilarni kasbiy tayyorlash natijasi sifatida tushunish lozim. Kompetentlik kompetentsiya singari kognitiv (bilish), motivatsion-qadriyatiy va emotsiyonal-irodaviy komponentlarni qamrab oladi. Kompetentlik - vaziyatga bog‘liq kategoriya, u aniq kasbiy (muammoli) vaziyatlarda biror faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlikni ifodalaydi.

Kompetentlikni asosiy beshta komponentdan tashkil topgan kategoriya sifatida tasavvur etish mumkin:

- yechiladigan muammolar va masalalar mohiyatini chuqur tushunish;
- ayni sohada mavjud bo‘lgan tajribalarni yaxshi bilish, uning eng yaxshi yutuqlarini faol egallash;
- joy va vaqtning aniq holatiga mos holda faoliyat vositalari va usullarini tanlash;
- erishilgan natjalarga mas’uliyat hissi;
- xatolardan o‘rganish va maqsadga erishish jarayoniga tuzatishlar kiritish qobiliyati.

Birinchidan, kompetentlik qisqa tarzda an'anaviy uchlik "bilimlar, ko'nikmalar va malakalar"ning birligida ifodalanadi va uning komponentlari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, kompentlik ta'lif muassasasi bitiruvchisi - bo'lajak mutaxassis tayyorgarligining real darajasini tavsiflash uchun eng maqbul mezon hisoblanadi.

Uchinchidan, kompetentli mutaxassis ko'plab yechimlar orasidan eng maqbulini tanlash qobiliyatiga ega bo'ladi, tanqidiy mulohaza yuritadi.

To'rtinchidan, kompetentlik bilimlarni doimiy ravishda yangilashni, ayni vaqtida va ayni shart-sharoitlarda kasbiy masalalarni muvaffaqiyatli ravishda yechish uchun yangi axborotlarni egallashni taqozo etadi.

Beshinchidan, kompetentlik ham mazmuniy (bilimlar), ham protsessual (ko'nikma) komponentlarni qamrab oladi. Kompetentli shaxs nafaqat muammo mohiyatini tushunadi, balki uni amaliy yechish borasida bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi.

Kompetentlik – bu bo'lajak mutaxassisning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o'rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

-kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari to'plami;

-kasbiy sohaning tayanch talablari ko'rinishida.

Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi.

Pedagogika nuqtai nazaridan, kompetensiya ma'lum ijtimoiy-kasbiy mavqega ega bo'lgan shaxslarning ko'nikmalari va tajribalarining ular bajaradigan vazifalar hamda hal qiladigan muammolarning haqiqiy darajasiga mosligi o'lchovi sifatida izohlanadi.

Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi.

Hozirgi vaqtida pedagogik ta'lif tizimini modernizatsiya qilish zarurati bilan bog'liq holda oliy ta'lif muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirishga kompetentlikga asoslangan yondashuv faol rivojlanmoqda, uning asosiy maqsadi esa amaliy yo'nalishni mustahkamlashdir. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lifning asosiy maqsadi esa zamonaviy jamiyatda talab qilinadigan – talabalarning bilish faoliyati, ijodiy faolligi, mustaqilligi, tashabbusini rivojlantirishdir.

Kasbiy kompetentlik – tipik va nostandart vaziyatlarda kasbiy vazifalarni samarali hal qilish uchun zarur bo'ladigan shaxsnинг mavjud resurslarini (bilim, malaka, ko'nikma va shaxsiy sifatlar tizimida tashkil etilgan) mobillashtirishga tayyorlik darajasini ko'rsatadi. Bu yerda shaxsnинг mavjud resurslarini mobillashtirishi deyilganida, oлган akademik bilimlarini hayotda samarali qo'llay olishi, nazariy bilimlarini o'zgalarga yetkazib bera olishi, ularning manbasi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Shuningdek, pedagogik kompetentlikni

bo‘lajak o‘qituvchilarning belgilangan darajadagi kasbiy majburiyatlarini bajarish imkoniyatini ta’minlovchi bilim, malaka, ko‘nikma va shaxsiy tizimi sifatida tushunish mumkin.

Yuqorida bayon etilgan ta’riflardan kelib chiqib, biz bo‘lajak o‘qituvchilarning aralash ta’lim sharoitida ishlashga tayyorligi, ya’ni pedagogik kompetentlikni quyidagicha ta’rifladik: pedagogik kompetentlik aralash ta’lim sharoitida samarali va ijodiy ishlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy va shaxsiy sifatlari, aralash ta’limni **amalga oshirish mohiyati, shart-sharoitlari va usullari haqidagi konseptual bilimlari majmuasidir.**

Aralash ta’lim sharoitida talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish uchun uning komonentlarini aniqlash zarur. Ana shu maqsadda, ushbu masalani yechishda pedagogik tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan turli xil yondashuvlarni tahlil qilib, biz talabalar pedagogik kompetentligining quyidagi komonentlarini ajratib ko‘rsatdik: motivatsion; kognitiv; faoliyatiy; texnologik; interfaol.

Kompetentlikning barcha tarkibiy qismlari bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq va biror bir komponentni alohida ajratib ko‘rsatish noto‘g‘ri. Biroq ko‘plab pedagogik olimlar motivatsion komponentga alohida ahamiyat berishadi. Chunki ushbu komponent faoliyat talablariga javob beradigan pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda yetakchilik qiladi. Aynan motivatsiya amaliy faoliyatga psixologik tayyorgarlikni amalga oshirishga yordam beradi, shaxsiy imkoniyatlardan foydalanan usulini ham, yo‘nalishini ham belgilaydi. Pedagogik kompetentlikning motivatsion komonentining shakllanganligi hali ishlashga psixologik tayyorgarlikning mavjudligini bildirmaydi, ammo ular bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi. Pedagogik kompetentlikning motivatsion komponenti kasbga ijobiy munosabatni, unga qiziqishni o‘z ichiga oladi. Bu maqsadlar, ehtiyojlar va motivlar tizimi bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirishga, kasb, ish va uning natijalariga ongli munosabatda bo‘lishga, mehnat va kasbiy faoliyatda faol bo‘lishga undaydi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati.

1. Alberth. How effective are technology enhanced teaching techniques in the EFL classroom? Doctor of philosophy dissertation. Malang; Sweeney., 2009. – 334 p.
2. Anderson L.V., Krathwohl D.R. Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. Addison Wesley Longman, Inc, US, 2001. – 333 p.
3. Азизова Л.Н. Формирование готовности студентов политехнического колледжа к использованию технологий мультимедиа [Электронный ресурс]: Современные проблемы науки и образования.- №2, 2012 г. - Режим доступа: <http://www.science-education.ru/pdf/2012/2/183.pdf>
4. Андреев А.А. К вопросу об определении понятия «дистанционное обучение»// Дистанционное образование. - М., 1997. - №4. - С. 16-19.
5. Arifovna, K. N. "The Study of Turkic Nations Folklore and its Development." *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT* 10 (2021): 55-59.
6. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology (Theory and Practice). – T.: 2015. – 336 p.
7. Кадирова Н. А. Элементы превращений и перевоплощений в некоторых значимых произведениях мировой литературы // Казанский вестник молодых учёных. 2019. №3 (11). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/elementy-prevrashcheniy-i-perevoploscheniy-v-nekotoryh-znachimyh-proizvedeniyah-mirovoy-literatury> (дата обращения: 26.10.2023).